




ABDURAHIMBEK TOLIBOV'S ENLIGHTENMENT IDEAS AND HIS CONTRIBUTION TO MODERN IRANIAN PROSE

Robiya Nuriddinbekova

1st-year Master's student

Faculty of Iranian and Afghan Studies

Tashkent State University of Oriental Studies

E-mail: robiyanuriddinbekova@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

O. Turdiyeva

Associate Professor, Doctor of Philological Sciences

Faculty of Iranian and Afghan Studies

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Abdurahimbek Tolibov, enlightenment, modern Iranian prose, educational reforms, social reforms, literary influence, realism, revolution.

Received: 28.04.25

Accepted: 10.05.25

Published: 14.05.25

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of Abdurahimbek Tolibov's enlightenment ideas and his contribution to modern Iranian literature. It explores Tolibov's views on education, social and political reforms, and analyzes the influence of his works on Iran's enlightenment movement and modernization. The article also highlights his most famous works, their plots, and thematic content.

ABDURAHIMBEK TOLIBOVNING MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARI VA ERON ZAMONAVIY NASRIGA QO'SHGAN HISSASI

Robiya Nuriddinbekova

1-kurs magistratura bosqichi talabasi

“Eronshunoslik va afg'onshunoslik” oliy maktabi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

E-mail: robiyanuriddinbekova@gmail.com

O. Turdiyeva

filologiya fanlari doktori

“Eronshunoslik va afg'onshunoslik” oliy maktabi dotsenti

TDSu

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Abdurahim Tolibov, ma'rifatparvarlik, Eron zamonaviy nasri, ta'lim islohotlari, ijtimoiy islohotlar, adabiy ta'sir, realizm, inqilob.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdurahimbek Tolibovning ma'rifatparvarlik g'oyalari va Eron zamonaviy adabiyotiga qo'shgan hissi atroflicha yoritiladi. Tolibovning ta'lim, ijtimoiy va siyosiy islohotlarga oid qarashlari, uning asarlarining Eron ma'rifatparvarligi va modernizatsiyasiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, Tolibovning mashhur asarlari, ularning syujeti va mazmuni yoritiladi.

**ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ ИДЕИ АБДУРАХИМБЕКА ТОЛИБОВА И ЕГО ВКЛАД В
СОВРЕМЕННУЮ ИРАНСКУЮ ПРОЗУ**

Робия Нуриддинбекова

Магистрант 1-го курса

Факультет иранистики и афганистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

E-mail: robiyanuriddinbekova@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О. Турдиева

доктор филологических наук

доцент факультета иранистики и афганистики,

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Абдурахимбек Толибов, просветительство, современная иранская проза, образовательные реформы, социальные реформы, литературное влияние, реализм, революция.

Аннотация: В данной статье подробно рассматриваются просветительские идеи Абдурахимбека Толибова и его вклад в современную иранскую литературу. Анализируются его взгляды на образование, социальные и политические реформы, а также влияние его произведений на иранское просветительство и модернизацию. Кроме того, в статье освещаются его известные произведения, их сюжет и содержание.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bir qator davlatlar singari Eronda ham ma'rifatparvarlik harakati kuchayib, bu davrda ko'plab ziyolilar jamiyatni isloh qilish, ta'lim tizimini yangilash va zamonaviy adabiyotni rivojlantirishga intildilar. Shunday ma'rifatparvarlardan biri Abdurahim Tolibov bo'lib, u o'zining ilg'or fikrlari va asarlari bilan nafaqat Eron, balki Eron Ozarbayjoni adabiyoti va madaniyatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Mirzo Abdurahim Tolibov Tabriziy 1834-1910-yil – Eronda mashhur bo'lgan yozuvchi, mutafakkir va ma'rifatparvar edi. U o'z hayoti davomida adabiy, siyosi va ijtimoiy jihatdan muhim asarlar yaratib, Eronning mashrutiyat davrida

ta'sirli shaxslardan biri hisoblangan. U obro'li va ziyoli oilada o'sgan. U o'smirlik yoshiga yetib, rus tilini o'rganish maqsadida xorijga jo'nab, hozirgi Gruziyada shu yo'nalishda tahsil ola boshlagan. Aynan shu davrda Mirzo Abdurahim Tolibov Tabriziy o'sha davrdagi sotsial-demokratiya kabi yangi siyosiy e'tiqod va yondashuvlar bilan yaqindan tanishdi. U rus adabiyotiga ham maftun bo'lgan va bu mamlakatning eng sara asarlarini o'qib, ko'p bilim olgan.

Uning kitoblari yoshligida nashr qilinmagan. U 55-65 yoshlarida turli ilmiy, siyosiy va falsafiy sohalarda kitoblar yozishga qaror qildi. Bu kitoblar, asosan, munozara va dialog tarzida hamda qadimgi yunon falsafiy asarlari uslubida yozilgan. O'shanda ba'zilar Mirzo Abdurahimning fikrlari islom diniga to'g'ri kelmaydi, deb hisoblardi va shu tariqa bu muallifning fikrlari haqida gapirishni ko'plab mutaassib mullalar va siyosiy odamlar man qilgan edi. Darhaqiqat, bu odamlar Abdurahim Tolibovning fikrlarini hech kim talqin qilmasligi kerak va ularni o'qish o'smirlar va yoshlarni chalg'itishi mumkin, deb hisoblagan. Abdurahim Tolibov 1906-yilda Milliy kengashning (Majles) birinchi davrasida qatnashdi. Bu davrda u parlament saylovlarida Tabriz shahri vakili sifatida qatnashdi va natijada g'alaba qozonishga muvaffaq bo'ldi.

Albatta, u parlamentga yo'l olgan bo'lsa-da, uyini va hayotini Tehron shahriga ko'chirmadi. Abdurahim Tolibov umrining so'nggi kunigacha o'zi yashagan Tamerxon Sho'roda, ya'ni bugungi Dog'istonning Boynakask shahrida yashadi. U 1910-yilda yetmish yetti yoshida vafot etdi.

Bu eronlik yozuvchi va mutafakkir asarlarining eng muhim xususiyatini uning erkinlikka intilishida ko'rish mumkin. Darhaqiqat, Abdurahim Tolibov yoshligidanoq turli ilmlarni o'rganganligi uning yozgan asarlarining boy va qiziqarli bo'lishiga sabab bo'lgan. Tolibov asarlarining boshqa jihatlari qatorida uning ijtimoiy fanlar, din va siyosatga doir zamonaviy qarashlarini ham qayd etishimiz mumkin.

Abdurahim Tolibov Tabriziy kitoblarining boshqa xususiyatlari qatorida murakkab va qiyin atamalar, tushunchalarni soda tilda o'quvchilarga yetkazadigan ravon va tushunarli nasrini ham qayd etishimiz mumkin.

Uning rus tilini o'rganishi va xorijda ishlashi orqali G'arb g'oyalari bilan yaqindan tanishganini ham aytib o'tish joiz. Darhaqiqat, Rossiya uning Sharq hayoti va G'arb fikrlari o'rtasidagi bog'liqlik nuqtasi edi. Mirzo Abdurahim Tolibov Tabriziy siyosiy muammolarni hal qilishda zamonaviy g'arb ilmlaridan foydalanish kerak, deb hisoblardi. Biroq u g'arb yot g'oyalaridan foydalanishga rozi bo'lmagan va bu ikki masalani bir-biridan farqli deb bilgan.

Eronlik bu ziyoli yozuvchi va mutafakkirning asarlaridan biri "Ahmadning kitobi" deb atalgan bo'lib, nashr etilgan paytda bobiylik dinini targ'iboychisi sifatida qoralangan edi. Ammo bugungi kunda mutaxassislar bu ayblovlar noto'g'ri bo'lganini aytishadi.

Tolibovning asarlari Eronning zamonaviy tarixida katta ahamiyatga ega bo'lib, ko'plab o'zgarishlarga sabab bo'lgan. Abdurahim Tolibovning asarlari ma'rifatparvarlik va islohotchilik

ruhida yozilgan bo‘lib, ular Eron va butun musulmon dunyosida modernizatsiya jarayoniga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Uning fikrlari Sharq jamiyatlarining taraqqiy etishi uchun ilm-fan, ta‘lim va siyosiy islohotlar muhim ekanligini ta‘kidlaydi.

Shuni ham ta‘kidlash kerakki, 2019 yil kuz-qish mavsumida Islomiy Ozod Universiteti tomonidan nashr qilingan "Tarix-e Iran" ("Eron tarixi") jurnalining 12-jildi, 2-sonida chop etilgan maqolada Tolibovning o‘z asarlarida qanday g‘oyalarni ilgari surgani, uning Eronning o‘zgarish jarayonlariga qanday ta‘sir ko‘rsatgani va uning fikrlari bugungi kun nuqtai nazaridan qanday talqin qilinishi haqida sharh berilgan. Maqola Mirzo Abdulrahim Tolibovning qarashlarini tahlil qiluvchi ilmiy tadqiqotdir. Unda Tolibovning "o‘zlik" va "boshqa" tushunchalariga qanday yondashgani, uning Eron jamiyatidagi modernizatsiya jarayonlariga ta‘siri va madaniy-ijtimoiy rivojlanishdagi roli sharhlangan.

Maqola quyidagi asosiy jihatlariga urg‘u beradi: Tolibovning "o‘zlik" va "boshqa" tushunchalariga qarashi – Qojorlar davrida Eron G‘arb bilan to‘qnashganida eronliklar o‘zlarini qanday anglay boshlaganlari va bu jarayonda Tolibovning roli ochib berilgan. Shu bilan birgalikda, Tolibovning modernizatsiya borasidagi qarashlari – U G‘arb taraqqiyotidan ilhom olgan, lekin milliy o‘zlikni yo‘qotmaslik kerakligini ta‘kidlagan. Shuningdek, Eron jamiyatiga ta‘siri – Uning asarlari Eronda modernizatsiya jarayonlarini shakllantirishda va madaniy o‘zgarishlarga yo‘l ochishda muhim bo‘lgan.

2018-yilning kuzida chop etilgan va uning mualliflari Mehrdad Nosrati va Dr. Fatima Heydari bo‘lgan maqolada XIX asrning Ozarbayjonda yashagan va Konstitutsion inqilobga ta‘sir ko‘rsatgan shaxslarning ilmiy va adabiy faoliyatlari tahlil qilinadi. Ular orasida Abdulrahim Tolibov va Mirza Habib Isfahoniy kabi fikr ma‘rifatparvarlar bor. Ularning asarlari ijtimoiy ongni yuksaltirishga va inqilobning maqsadlariga erishishga yordam berganligi haqida so‘z yuritilgan. Tolibovning yozgan asarlari va shu asarlar orqali u ijtimoiy ongni yuksaltirishga, odamlarning jamiyatdagi o‘rni haqida chuqurroq fikrlashga undagan. U o‘zining yozgan maqolalarida, she‘rlarida va boshqa adabiy asarlarida jamiyatdagi nohaqlikni qoralab va adolatni targ‘ib qilganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Tolibovning fikrlari ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarga ta‘sir ko‘rsatganligi yoritilgan. Uning asarlarida Konstitutsion inqilobning rivojlanishiga qo‘shgan hissasi va jamiyatda amalga oshirishni xohlagan islohotlarga nisbatan ilgari surilgan g‘oyalari muhim ahamiyatga egaligi yoritib o‘tilgan.

Abdurahim Tolibov Tabriziyning "Ahmadning kitobi" – کتاب احمد (Kitāb-i Ahmad) asari dialog shaklida yozilgan bo‘lib, unda Ahmad ismli bola otasi bilan savol-javoblar orqali suhbat qiladi. Ular turli mavzular, jumladan, ta‘lim, siyosat, taraqqiyot va jamiyatdagi islohotlar haqida bahslashadilar. "Ahmadning kitobi" (Kitāb-i Ahmad) Abdurahim Tolibov tomonidan 1908-yilda yozilgan va Istanbulda chop etilgan. Bu asar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida musulmon dunyosida kechayotgan modernizatsiya va islohotlar, ma‘rifatparvarlik harakatlarining muhim mahsuli

hisoblanadi. Uning ushbu asari o'sha davr ziyolilari orasida katta ta'sir kuchiga ega bo'lib, ta'lim, siyosiy islohotlar va jamiyat rivojiga oid ilg'or qarashlarni ilgari surgan.

Asarning eng asosiy maqsadi – Sharq jamiyatlarining qoloqlik sabablarini tahlil qilish va ularga ma'rifatparvarlik orqali chiqish yo'lini ko'rsatish bo'lgan. Asar Eronda ma'rifatparvarlik harakatining muhim namunasiga aylangan. Bu asar mashrutiya davrining muhim va o'qilishi oson asarlaridan biri bo'lib, Eronning ma'rifatparvarlik tarixida muhim o'rin tutadi. Shuningdek, bu asar o'smirlar uchun ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega.

"Ozodlik va siyosat" nomli kitobida Tolibov "Ozodlik haqida izohlar" va "Tolibning siyosati" nomli ikki risolani jamlagan. Birinchi risolada u ozodlik tushunchasi, Milliy Maslahat Kengashi, uning foydalari, xalq vakillarining vazifalari, Eronning kelajakdagi qonunlari, soliqlar va konstitutsiya haqida so'z yuritadi. Ikkinchi risolada esa siyosat mavzusini batafsil yoritadi.

"Masolik ul-Muhsinin" asarida bir guruh yoshlarning Damovand tog'iga ilmiy sayohati tasvirlanadi. Ular ushbu sayohat davomida o'zlarining axloqiy, ijtimoiy va tarbiyaviy bilimlarini munozara va bahslar orqali o'rtoqlashadilar. Asar nashr etilgach, ozodlik tarafdorlari va taraqqiyparvarlar tomonidan iliq kutib olindi, ammo ba'zi konservativ ruhoniylar va mustabidlar tomonidan tanqid qilindi va uning o'qilishi taqiqlangan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Abdurahim Tolibov Eronda ma'rifatparvarlik g'oyalarining peshqadam vakillaridan biri bo'lgan. Uning ma'rifatparvarlik g'oyalari rivoji va Eron zamonaviy adabiyotiga qo'shgan hissasi ulkan bo'lib, xususan, "Ahmadning kitobi" va "Ozodlik va siyosat" kabi asarlari, Sharq jamiyatlarining rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ilm-fan, siyosat va ijtimoiy islohotlarni ilgari suradi. U G'arb g'oyalaridan ta'sirlanib, Eronning modernizatsiya jarayonini qo'llab-quvvatlagan, ammo milliy o'zlikni saqlashga urg'u bergan.

Tolibovning fikrlari, asarlari va ularning jamiyatdagi ta'siri 19-20 asr boshlaridagi Eron va umuman musulmon dunyosining siyosiy va ijtimoiy islohotlari uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi, unga ergashuvchilar soni ortib bordi. Uning o'zgarishlarni amalga oshirishdagi g'oyalari ijtimoiy ongni yuksaltirishga, inqilobiy qarashlarni kengaytirishga va Eronning ma'rifatparvarlik tarixiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Tolibovning asarlari nafaqat o'z davrida, balki zamonaviy dunyoda ham ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlarning amalga oshirilishiga turtki bo'ldi. Uning ma'rifatparvarlik g'oyalari va adabiy merosi Eron tarixida va adabiyotida muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Fotima Kavoshi, Ahmad Xatami va Farhod Tohmasbi. تاريخ ايران "Tarixi Eron" jurnali. 12-jild, 2-soni. 2019.
https://irhj.sbu.ac.ir/article_95897_3b1cb784b913177a1b3cc3f4804fd155.pdf

2. Mehrdod Nosrati va Fotima Heydari (Karaj Islomiy Ozod Universiteti). فصلنامه بهار ادب "Bahor Adab" (Faslname-yi Baxor-e Adab) jurnali, 11-jild, 3-soni. 2018
<https://www.bahareadab.com/pdf/845.pdf>
3. کتاب احمد kitobi so'zboshi 3-bet
4. Kasroviy, A. "Constitutional Revolution in Iran", Tehran, 1933.
5. Bregel, Yu. "The Modernization of Persian Literature", Cambridge, 1998.